

TIJORAT BANKLARIDA MOLİYAVIY RISKLARNI BOSHQARISHDA INFRATUZILMA BARQARORLIGI VA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING O'ZARO TA'SIRI

Xoldorov Sardor Umarovich

TDIU katta o'qituvchisi, PhD

Email: s.xoldorov@tsue.uz

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 04.11.2025

Revised: 05.11.2025

Accepted: 06.11.2025

KALIT SO'ZLAR:

moliyaviy risklarni
boshqarish,
infratuzilma
barqarorligi, raqamli
transformatsiya, tijorat
banklari, muammoli
kreditlar, kapital
yetarliligi, elektron
to'lovlar,
kiberxavfsizlik, Bazil
standartlari,
O'zbekiston bank
sektori.

Maqolada O'zbekiston tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarishda infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiyaning o'zaro ta'siri sinergik jihatdan o'rganiladi. So'nggi yillarda bank sektori sezilarli modernizatsiyadan o'tdi: masofaviy xizmat foydalanuvchilari soni 2020-yildagi 10,5 milliondan 2024-yilda 23 milliondan oshdi, elektron to'lovlar hajmi esa 580 trln so'mdan 2 000 trln so'mdan oshib, 3,5 baravar o'sdi. Kapital yetarliligi 2024-yilda 18,5 % ni saqlab qolgan bo'lsa-da (Bazil standartlaridan ikki baravar yuqori), muammoli kreditlar ulushi 2,8 % dan 4,2 % ga ko'tarildi, bu yangi zaifliklarni ko'rsatmoqda. Tadqiqot raqamli infratuzilmaning ikki tomonlama rolini – operatsion samaradorlikni oshirish va yangi risklarni keltirib chiqarishini tahlil qiladi. Empirik ma'lumotlar va xalqaro me'yorlar asosida risk-menejment integratsiyasidagi bo'shliqlar aniqlanib, raqamli transformatsiyani prudensial nazorat bilan uyg'unlashtirish modeli taklif etiladi. Asosiy tavsiyalar: texnologik risk baholash modellari, kiberxavfsizlik protokollarini kuchaytirish va kredit risklarini yumshatish uchun moslashuvchan zaxira siyosati. Natijalar infratuzilma mustahkamligini raqamli innovatsiyalar bilan uyg'unlashtirish O'zbekiston bank tizimining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligi uchun strategik zarurat ekanligini ta'kidlaydi.

Kirish

So'nggi yillarda global moliya tizimi barqarorligini ta'minlashda tijorat banklarining roli tobora ortib bormoqda. Bank sektori nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim omili, balki moliyaviy resurslarni samarali taqsimlash va risklarni boshqarish markazi sifatida ham faoliyat yuritadi. Shu bois, bank faoliyatida yuzaga keladigan moliyaviy risklarni aniqlash,

=====

baholash va samarali boshqarish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi davrda moliyaviy risklarni boshqarish jarayonida infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiyaning o'zaro uyg'unligi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Chunki bank infratuzilmasi – to'lov tizimlari, axborot texnologiyalari, kommunikatsiya vositalari hamda huquqiy-me'yoriy bazaning mustahkamligi – risklarni kamaytirishda muhim rol o'ynaydi [7,9]. Shu bilan birga, raqamli transformatsiya jarayonlari, xususan, masofaviy bank xizmatlari, fintech innovatsiyalari va kiberxavfsizlik mexanizmlarining joriy etilishi banklarning moliyaviy barqarorligini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda [8].

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda bank sektorida infratuzilmani modernizatsiya qilish, raqamli texnologiyalarni keng tatbiq etish va xalqaro standartlarga mos risk-menejment tizimlarini joriy qilish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Biroq, infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiyaning o'zaro ta'sirini chuqur ilmiy tahlil qilish hamda ularning tijorat banklari moliyaviy risklarini boshqarishdagi o'rini aniqlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda [3].


Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy risklarni boshqarishda infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiyaning o'zaro ta'siri ilmiy jihatdan tadqiq qilinadi, mavjud muammolar tahlil qilinib, samarali taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Oxirgi davrlarda O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya jarayonlari sezilarli darajada jadallashdi. 2020-yilda banklarda masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 10,5 million kishini tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 23 milliondan oshdi. Bu esa bank xizmatlarining raqamlashtirilishi keng qamrovli tus olganidan dalolat beradi.

Shuningdek, elektron to'lovlar hajmi ham jadal o'sdi. 2020-yilda 580 trln so'mni tashkil etgan elektron to'lovlar hajmi 2024-yilda 2 000 trln so'mdan oshib, qariyb 3,5 barobarga ko'paydi. Bu jarayon aholining ham, biznes sub'yektlarining ham raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanishga bo'lgan ishonchi ortib borayotganini yaqqol ko'rsatadi [6,1,2].

Tijorat banklarining kapital yetarliligi ko'rsatkichi ham barqaror darajada saqlanmoqda. 2024-yilda u o'rtacha 18,5 %ni tashkil etib, xalqaro Bazel standartlarida belgilangan 8 % ko'rsatkichidan deyarli ikki barobar yuqori bo'ldi. Bu banklarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash va risklarga qarshi moliyaviy "yostiq"ni saqlashda muhim omil hisoblanadi.

Biroq, moliyaviy risklarning oshib borayotganini ham e'tibordan chetda qoldirib bo'lmaydi. Jumladan, yomon kreditlar ulushi (NPL) 2020-yildagi 2,8 % dan 2024-yilda 4,2 % ga ko'tarildi. Bu esa tijorat banklarida risk-menejment mexanizmlarini yanada kuchaytirish, infratuzilma barqarorligini mustahkamlash va raqamli xavfsizlik choralari kengaytirishni taqozo etadi [1].



1-rasm. Muammoli kreditlarning jami kreditlardagi ulushi, foizda

So'nggi yillarda xalqaro amaliyotda bank infratuzilmasi va raqamli transformatsiya risk-menejmentning ajralmas qismi sifatida o'rganilmoqda. Masalan, Basel Committee (2022) hisobotida banklarda IT-infratuzilma barqarorligi va kiberxavfsizlik moliyaviy risklarni kamaytirishning asosiy vositasi sifatida ko'rsatiladi.

O'zbekistonda ham mazkur yo'nalishda qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda, va ularda asosan tijorat banklarida risklarni boshqarishda axborot texnologiyalarining ahamiyatini ta'kidlab, raqamli xizmatlar xavflarni kamaytirish bilan birga yangi turdagi kiberxavfsizlik, texnologik uzilishlar kabi xavflarni keltirib chiqarishini qayd etadi.

O'zbekiston bank tizimi so'nggi besh yilda sezilarli o'zgarishlarga uchradi. Quyidagi jadvalda 2020–2024-yillarda bank sektorida risklarni boshqarish va raqamli infratuzilma rivojiga oid asosiy ko'rsatkichlar keltirilgan.

1-jadval. O'zbekistondagi tijorat banklarining raqamli ko'rsatkichlari (2020–2024)

Ko'rsatkichlar	2020	2021	2022	2023	2024
Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar (mln)	10.5	14.2	17.8	20.5	23.0
Elektron to'lovlar hajmi (trln so'm)	58.0	89.0	123.0	160.0	200.0+
Tijorat banklari jami aktivlari (trln so'm)	34.0	42.0	51.5	65.0	78.0
Yomon kreditlar ulushi (NPL, %)	2.8	3.1	3.6	4.0	4.2
Kapital yetarliligi ko'rsatkichi (%)	18.0	18.2	18.4	18.5	18.5


Bank sektorida raqamli infratuzilma sezilarli kengaygan bo'lib bunda masofaviy xizmat foydalanuvchilari 2 barobardan ko'proqqa oshgan. Elektron to'lovlar hajmiga qaraydigan bo'lsak 2020-yildagi 580 trln so'mdan 2024-yilda 2000 trln so'mga oshib, 3,5 barobar o'sishni ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, muammoli kreditlar ulushi ham biroz oshgan, bu esa risk-menejmentni kuchaytirish zaruratini bildiradi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekiston bank tizimida raqamli transformatsiya bir tomondan moliyaviy xizmatlar samaradorligini oshirish va aholiga qulaylik yaratishda katta imkoniyatlar bermoqda. Ikkinchi tomondan esa, raqamli xizmatlar kengayishi bilan bog'liq holda yangi turdagi risklar — kiberxavfsizlik, texnologik uzilishlar va ma'lumotlar xavfi yuzaga kelmoqda. Shu sababli infratuzilma barqarorligi va raqamli xavfsizlikni ta'minlash moliyaviy risklarni boshqarishda strategik ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston bank tizimida so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari jadal sur'atlarda rivojlanmoqda. Grafik ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2020-yilda masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar soni 10,5 million kishini tashkil etgan [1,2] bo'lsa, 2024-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 23 milliondan oshib, deyarli ikki barobar o'sdi. Bu esa bank xizmatlarining raqamlashtirilishi keng ommalashib borayotganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, elektron to'lovlar hajmi ham sezilarli darajada ortdi. 2020-yilda 580 trln so'mni tashkil etgan elektron to'lovlar hajmi 2024-yilda 2 000 trln so'mdan oshib, qariyb 3,5 barobarga ko'paydi [5,1,2]. Ushbu tendensiya aholining ham, biznes sub'yektlarining ham raqamli moliyaviy xizmatlardan faol foydalanayotganini va ularning bank tizimiga bo'lgan ishonchi mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.



2-rasm. Bank tizimidagi raqamli infratuzilmaning rivojlanishi ko'rsatkichlari (2020-2024).

Umuman olganda, O'zbekiston bank sektoridagi infratuzilma modernizatsiyasi va raqamli transformatsiya iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Biroq, yomon kreditlar ulushining oshishi banklarning risk-menejment tizimlarini qayta ko'rib chiqish va zamonaviy infratuzilmaga asoslangan, xalqaro tajribaga mos uslublarni tatbiq etishni talab qiladi. Kelgusida tijorat banklarida infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiyaning uyg'unligi moliyaviy xavflarni kamaytirish va barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri bo'lib qoladi.

O'zbekiston tijorat banklari faoliyatini chuqur tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, so'nggi yillarda raqamli transformatsiya jarayonlari va infratuzilma barqarorligining mustahkamlanishi bank xizmatlari hajmi hamda sifati sezilarli darajada oshishiga olib kelgan bo'lsa-da, moliyaviy risklarning, xususan, muammoli kreditlar ulushining ortib borishi risk-menejment mexanizmlarini yanada takomillashtirish zaruriyatini yuzaga chiqarmoqda [7]. Masofaviy xizmatlardan foydalanuvchilar sonining 2020–2024-yillar davomida deyarli ikki barobar oshgani va elektron to'lovlar hajmining 3,5 barobarga ko'paygani bank tizimining zamonaviy infratuzilmaga asoslangan holda rivojlanayotganini anglatadi [1], biroq muammoli kreditlar ulushining ko'tarilishi bu o'sish jarayonining o'zida ma'lum xatarlarni ham mujassam etayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, maxsus zaxiralarning muammoli kreditlar va mikroqarzlarga nisbati 2022–2023-yillarda yuqori darajada bo'lib, kredit risklarini qoplash salohiyatining yetarliligini ta'minlagan bo'lsa-da, 2024-yilda ushbu ko'rsatkichning pasayishi bank sektorida kredit siyosatini yanada ehtiyotkorlik bilan yuritish lozimligini taqozo etadi. Bu esa infratuzilma barqarorligi va raqamli transformatsiya jarayonlarini risk-menejment strategiyalari bilan uyg'unlashtirish zaruriyatini alohida dolzarb masala sifatida namoyon qilmoqda. Tadqiqot shu joyida quyidagi takliflar bilan cheklanadi.

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy risklarni kamaytirish va muammoli kreditlar ulushini nazorat ostida ushlab turish uchun risk-menejment tizimlarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bank infratuzilmasining barqarorligini ta'minlashda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, to'lov tizimlari va kiberxavfsizlik mexanizmlarini izchil rivojlantirish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarurdir.

Raqamli transformatsiya jarayonlarini jadallashtirish, ya'ni internet-banking, mobil ilovalar va boshqa masofaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish orqali mijozlar uchun qulayliklarni oshirish bilan birga, risklarni boshqarish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Kredit risklariga qarshi himoya sifatida maxsus zaxira siyosatini muvozanatli va ehtiyotkorlik asosida yuritish, risk darajasiga mutanosib ravishda zaxira hajmini shakllantirish banklarning moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Ilg'or xorijiy tajribani, xususan Bazel qo'mitalari tomonidan tavsiya etilgan prudensial me'yorlar va risk-menejment yondashuvlarini milliy amaliyotga joriy etish bank sektorining barqarorligini oshirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. "O'zbekiston Respublikasi bank tizimi to'g'risida yillik hisobotlar" (2020–2024-yillar). – Toshkent: Markaziy bank nashrlari.
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. "Moliyaviy sektor ko'rsatkichlari" (2020–2024-yillar). – www.stat.uz.
3. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Principles for the Sound Management of Operational Risk. Bank for International Settlements (BIS).
4. Mishkin, F. S. (2018). The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. Pearson Education, 12th Edition.
5. Saunders, A., & Cornett, M. M. (2020). Financial Institutions Management: Risk Management Approach. McGraw-Hill Education.
6. Allen, F., & Carletti, E. (2013). Systemic risk from real estate and macro-prudential regulation. *International Journal of Banking, Accounting and Finance*, 5(1/2), 28–48.
7. Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2010). Financial institutions and markets across countries and over time: The updated financial development and structure database. *World Bank Economic Review*, 24(1), 77–92.
8. Levine, R. (2005). Finance and Growth: Theory and Evidence. *Handbook of Economic Growth*, Vol. 1A. Elsevier.
9. Ko'chkarov, A. (2023). Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarida risklarni boshqarish muammolari. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, №3. – Toshkent.
10. Nurmatova, D. (2022). Bank sektorida infratuzilma barqarorligi va moliyaviy xavflarni kamaytirish yo'nalishlari. *Moliyaviy tahlil jurnali*, №2. – Toshkent.
11. Muhammad, M., Sarı, E.S., Umarovich, K.S., Takidah, E. and Pertiwi, R.S., 2024. Factors affecting Islamic bank financial performance. *Review of Islamic Economics and Finance*, 7(2), pp.89-102.
12. Xoldorov, S., 2024. Banklar samaradorligi va kapital yetarliylik ko'rsatkichi riski o'rtasidagi bog'liqlik tahlili. *YASHIL IQTISODIYOT VA TARAQQIYOT*, 2(11).
13. Gunardi, G., Syai, A.N.K., Umarovich, K.S., Al Mighwar, M., Bandawaty, E. and Kartikaningsih, D., 2024. Fluctuation of Credit Risk and Company Size on Liquidity. *Journal of Islamic Economics and Business*, 4(2), pp.264-278.
14. Norkulov, S.S., Apandi, R.N.N., Nasim, A. and Kholdorov, S.U., Analysis of The Level of Cybersecurity Disclosure on Social Media on Bank Financial Performance (Case Study on Banks in Uzbekistan). *Jurnal Pendidikan Akuntansi & Keuangan*, 13(2), pp.195-204.